

UDK: 635.21: 631.52: 631.51: 664

**KARTOSHKA NAVLARI TUGANAKLARIDAN TAYYORLANGAN
CHIPS CHIQIMIGA YETISHTIRISH MUDDATLARI VA EKISH
SXEMALARINING TA'SIRI**

*q.x.f.f.d., (PhD) v.b. dotsent **Begimkulov Ilxom Baxtiyorovich***,*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali, Toshkent. O'zbekiston.*

**e-mail: ilxom.begimkulov0@gmail.com*

*Talaba **Nodirova Dildora Bahodir qizi,***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali, Toshkent. O'zbekiston.*

**e-mail: nodirovadildora564@gmail.com*

*Talaba **Nematova Dilnura To'lqin qizi.***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali, Toshkent. O'zbekiston.*

**e-mail: dilnuranematova6@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada kartoshka tuganaklarini qayta ishlashga yaroqli tuganaklarni yetishtirish uchun qo'llaniladigan texnologiya elementlarining samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqotlar olib borildi.*

Аннотация. *В статье проведены исследования с целью повышения эффективности элементов технологии выращивания клубней картофеля, пригодных для переработки.*

Abstract. *In the article, research was carried out in order to increase the efficiency of the elements of technology used to grow potato tubers suitable for processing.*

Kalit so'zlar: *Tuganak, chips chiqimi va sifati, biokimyoviy tarkib, muddat, qayta ishlash.*

Ключевые слова: *Клубень, урожайность и качество чипсов, биохимический состав, продолжительность, переработка.*

Key words: Tuber, yield and quality of chips, biochemical composition, duration, processing.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4704 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 iyundagi 462-son “2019 yil hosili uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga urug‘lik kartoshka yetkazib berish va ichki iste‘mol bozorini ijtimoiy muhim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli to‘ldirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, qarorlari va farmonlari, shuningdek, ushbu faoliyatga taalluqli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarimizda kartoshkaning navlar xususiyatlari, yetishtirish muddatlari va sxemalarining kartoshka tuganaklaridan tayyorlanadigan chips chiqimi va sifati kartoshka navi, yetishtirish muddatlari va sxemalariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, Romano navi tuganaklaridan tayyorlangan chips chiqimi va sifati Surxon-1 navi tuganaklaridan tayyorlangan chipsga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Ya‘ni, bu navda yetishtirish muddati va sxemasiga bog‘liq ravishda chips chiqimi 19,5 – 21,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Surxon-1 navida bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda 17,0 – 19,6 % ni tashkil qildi.

Material va metodlar.


Dala tajribalari sinovlari qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini Davlat nav sinash komissiyasi [2], Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti [1] olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi”, Tuganaklardan tayyorlangan chips chiqimi va sifati [3]., [4] uslublari asosida o‘tkazildi.

O‘zbekiston sharoitida kartoshkaning qayta ishlash, jumladan chips tayyorlash uchun mos navlarini ajratish, yetishtirish sharoitlari, usullari, ekinni yetishtirish xamda texnologiyasi elementlarining kartoshka tuganaklari

biokimyoviy tarkibiga asosida qayta ishlash samaradorligiga ta'sirini o'rganish sohaning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kartoshkaning Romao navi Surxon-1 naviga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Masalan, bahorgi muddatda yetishtirilgan o'simliklar hosilidan tayyorlanadigan chips chiqimi Surxon-1 navida ekish sxemalari turli variantlardan olingan tuganaklarga nisbatan 19,2–19,5 % ni, yozda yangi kovlab olingan tuganaklar bilan qayta ekilgan variantlardan olingan tuganaklarda esa 12,0 – 12,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Romano navida bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 19,8 – 20,95 % va 14,25 – 15,5 % ni tashkil qildi. Ya'ni nav xususiyatlaridan tashqari, bahorgi muddatda yetishtirish o'simliklar hosilidan tayyorlangan chips chiqimi yozgi muddatda ekilgan tuganaklarini ekib olingan hosiliga nisbatan har ikki navda xam yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yetishtirish muddatidan tashqari ekish sxemasi ham tuganaklardan tayyorlangan chips chiqimiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Surxon-1 navi bahorgi muddatda 70x15 sm sxemada ekilgan o'simliklar hosilidan chips chiqimi 19,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 70x25 sxemada bu ko'rsatkich 19,5% ni tashkil qildi. Yozda yangi kovlab olingan tuganaklar bilan qayta ekilgan variantda esa bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 12,0 – 12,9 % ni tashkil qildi. Kartoshkaning Ramona navida ham analogik natijalar kuzatildi. (1-rasm).



1-rasm. Yetishtirish muddatlari va ekish sxemasining kartoshka navlaridan tayyorlangan chips chiqimiga ta'siri

O'tkazilgan tadqiqotlar kartoshka tuganaklarining tarkibidagi chips sifati asosan nav hususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatdi. Masalan, bu sohada kartoshkaning Romano navi Surxon-1 naviga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Ya'ni bu navning xar ikki muddatda va turli ekish sxemalarida yetishtirilgan tuganaklardan tayyorlanadigan chips sifati 9 ball bilan baholandi.

Kartoshkaning Surxon-1 navida esa tuganaklardan tayyorlanadigan chips sifati o'ziga xos hususiyatlarini ko'rsatdi. Masalan, bahorgi yetishtirish muddatidan tayyorlangan chips sifati 8 ball bilan baholangan bo'lsa, yozda yangi kovlab olingan tuganaklar bilan qayta ekib yetishtirilgan tuganaklardan tayyorlangan chips sifati o'tkazilgan degustatsion baholashlar asosida 7 ball bilan baholandi.

Xulosa.

Kartoshka tuganaklaridan tayyorlanadigan chips chiqimi va navlar bo'yicha 19,2 - 19,5 % ni tashkil etib, har ikki navda ham bahorgi muddatda yetishtirilgan tuganaklardan chips chiqimi va sifati (8 ball) yozgi muddatga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Ekish sxemasiga bog'liq ravishda 70x25 sxemada ekilgan variant tuganaklardan chips chiqimi va sifati ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov B.J., Azimov B.B., Ostonaqulov T.E., Shokirov A., Mavlyanova R.F., Xakimov R.A., Lyan Ye.Ye., Salomov B.S., Alimuxamedov S.S., Xoldorov M.O'., Mamatov K.Sh., Ibroximov B.A., Rasulov F.F., Mirzasoliyev M.M., Raxmatov A.M., Aripova Sh.R., Ganiyev F.Q., Sobirova M.Sh. // Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o'tkazish uslubi. Uslubiy qo'llanma. -Toshkent: Baktria press, 2023 yil. –B. 220–227.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq

хо‘jalik ekinlari Davlat reyestr. Toshkent-2023 yil. –В. 113.

3. Николаева М.А. Методы по товароведению потребительских товаров. -М.: Инфра-М, 2003. –стр. 283.

4. Симаков И.А. Определение вкусовых качеств картофеля // Старт в науке. – 2019. –стр. 2–3.

5. www.potatotubers.com